



Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko'magi bilan ta'minlandi



unicef 

Har bir bola uchun

SURXONDARYO VILOYATIDA INKLYUZIV TA'LIM, IJTIMOYIY XIZMATLAR VA HUQUQIY YORDAMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH

UNICEF TOMONIDAN AMALGA OSHIRILAYOTGAN, YEVROPA ITTIFOQI VA UNICEF TOMONIDAN MOLIALASHTIRILGAN LOYIHA

# JABRLANUVCHI VA GUVOH BOLALARNING HUQUQLARI



Mazkur nashr Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko'magi yordamida tayyorlangan. Uning mazmuniga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va UNICEF mas'uliyatli bo'lib, bu masala bo'yicha Yevropa Ittifoqining nuqtai nazarini aks ettirmasligi mumkin.

## JABRLANUVCHI VA GUVOH BOLALARNING HUQUQLARI

Ushbu qo'llanmada jinoyat jabrlanuvchilari va guvoh bolalarning huquqlari, ularni so'roq qilish jarayoni, jinoyat protsessining bosqichlari hamda notanish, murakkab huquqiy atamalarning izohi haqidagi ma'lumotlar berib o'tiladi.

### HUQUQIY ATAMALARNING IZOHI

**Advokat** – o'zlarining huquqiy bilimlari bilan bolalarga, kattalarga maslahat, yordam beradigan, jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qiladigan shaxs hisoblanadi.



Hamma odamlar o'zlarining huquq va manfaatlarini yetarlicha bilmasligi mumkin. Mana shunday vaziyatlarda advokatlar fuqarolarga huquqiy yordam beradi.

**Guvoh** – bu jinoyat ishi bo'yicha tushuntirishni talab qiladigan vaziyatni bilishga qodir bo'lgan har qanday shaxs.

Guvoh ko'rgan, eshitgan yoki bilganlarini yashirmay, haqiqatni so'zlab berishi lozim. 18 yoshgacha bo'lgan guvoh – guvoh bola hisoblanadi.



**Jabrlanuvchi** – jinoyat natijasida jismoniy, ma'naviy yoki mulkiy zarar ko'rgan shaxs hisoblanadi. 18 yoshgacha bo'lgan jabrlanuvchi – jabrlanuvchi bola hisoblanadi.






**Jinoyat ishini qo'zg'atish** – deganda jinoyat sodir etilganligi (qayerda va qachon) haqida ma'lumot hamda yetarli qonuniy asoslar mavjud bo'lsa, jinoyat ishi ochiladi.

**Jinoyat ishini tugatish** – jinoyat ishidagi barcha tergov va protsessual harakatlarning tugatilishini bildiradi. Jinoyat sodir etishda aybi bo'lmagan shaxslar javobgarlikdan ozod qilinadi.





**Prokuror** – sudda aybdor shaxsga qonuniy jazo berish lozimligini so'raydigan shaxs hisoblanadi.



**Psixolog** – jabrlanuvchi va guvoh bolalarga jinoyiy protsessda ishtirok etishlarini osonlashtirish maqsadida ularga psixologik qo'llab-quvvatlash bilan birgalikda psixologik yordam ko'rsatadigan shaxs hisoblanadi.




**Pedagog** – pedagoglarning (o'qituvchilarning) vazifasi bolalarning manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, jinoyat protsessida bolalarga yordam va ko'mak berish hisoblanadi.



**Sudya** – odil sudlovga raislik qiladigan, aybdor shaxslarga hukm o'qiydigan, aybsiz shaxslarni sud zalidan ozod qiladigan shaxs hisoblanadi.




**Tergovchi** – jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash uchun ma'lumotlarni to'playdigan shaxs hisoblanadi.



## JINOYATNI SODIR ETISH

Har bir bola kattalar kabi biror-bir jinoyatning jabrlanuvchisi yoki noqonuniy harakatning guvohi bo'lishi ehtimollari mavjud. Buning natijasida bola jinoyat ishini tergov qilishga mas'ul bo'lgan ichki ishlar (yoki boshqa idora) xodimlari tomonidan turli xil jinoyat ishiga aloqador bo'lgan harakatlarda hamda keyinchalik sudda ishtirok etishi uchun taklif etiladi.



## GUVOH

Guvoh sifatida ishtirok etish uchun yosh chegarasi yo'q. Odatda guvoh ko'rgan, bilgan, eshitgan voqea-hodisalari haqidagi ma'lumotlarni so'zlab beradi.



### GUVOH QUYIDAGILARGA MAJBUR HISOBLANADI:

- jinoyat ishi bo'yicha o'ziga ma'lum hamma narsa haqida haqqoniy so'zlab berishi;
- unga berilgan savollarga javob qaytarishi;
- so'roq o'tkazayotgan shaxsning ruxsatisiz ish to'g'risida o'ziga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilmaslikka majburdir.

## JABRLANUVCHI

Ba'zi bezorilar ko'chada, avtobusda, bozorda yoki boshqa joyda hujum qilib, sizga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. U sizning pulingizni, telefoningizni, soatingizni yoki boshqa qimmatbaho narsalarni o'g'irlashi va sizga jismoniy zarar yetkazishi mumkin.



Mana shunday vaziyatda siz ichki ishlar organlariga zudlik bilan murojaat qilishingiz lozim. Mazkur ish bo'yicha tergov olib boriladi hamda prokuror tomonidan to'plangan barcha materiallar jinoyat ishlari bo'yicha sudga yuboriladi.

Shundan so'ng sud jinoyat ishini ko'rib chiqib, aybdorga jazo tayinlaydi, shuningdek, jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida qaror qabul qiladi.

## JINOYAT PROTSESSINING BOSQIHLARI

Jinoyat sodir etilganidan boshlab aybdor shaxslar qo'lga olinib, ularning sudi bo'lib o'tgunicha bo'lgan jarayon jinoyat protsessi deyiladi.

Boshqacha qilib aytganda, jinoyatni kim sodir etganini, qayerda, qachon, nima uchun sodir etilganligini, jinoyat guvohi bo'lgan shaxslarni, ularning joylashgan joyini aniqlashingiz kerak, keyin ular bilan suhbat (so'roq) o'tkazishingiz kerak. Xulosa qilib aytganda, siz jinoiy jarayonning har bir bosqichidan o'tishingiz kerak.





### JINOYAT SODIR ETILGANDAN KEYIN AMALGA OSHIRILADIGAN BOSQICHLAR QUYIDAGILARDAN IBORAT:

- jinoyat ishi qo'zg'atish;
- tergov;
- sudda ish yuritish.



Bu bosqichlarning hammasi jinoyat protsessi deyiladi.

## JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH

Jinoyat ishini qo'zg'atish deganda jinoyat sodir etilganligi haqida ma'lumot (qayerda, qachon sodir etilganligi haqida) hamda jinoyat ishini ochish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, jinoyat ishi ochiladi.



Jinoyat sodir etilganligini bilgan har qanday shaxs, shuningdek, jinoyatning jabrlanuvchisi yoki guvohiga aylangan shaxs bu haqda xabar berishi kerak. Jinoyat ishini qo'zg'atish surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan amalga oshiriladi.



## TERGOV

Tergov bosqichida to'plangan dalillar o'rganiladi, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslar ushlanadi, jinoyatning barcha tafsilotlari – qayerda sodir bo'lganligi va jinoyat bilan bog'liq barcha voqealar aslida qanday rivojlanganligi aniqlanadi.



Jinoyat jabrlanuvchisi bo'lgan voyaga yetmagan shaxs unga qanday tarzda zarar yetkazilgani yoki jinoyat guvohi bo'lsa jinoyat qanday sodir etilgani haqidagi barcha ma'lumotlarni so'zlab beradi. Voyaga yetmagan shaxs o'zi ko'rgan voqeani, kimlar ishtirok etgani, qayerda bo'lgani, qachon va qanday sodir etilganini gapirib beradi.

## JINOYAT ISHINI SUDDA KO'RIB CHIQISH

Jinoyat ishini sudda ko'rib chiqish bosqichi yakuniy bosqich bo'lib, jabrlanuvchi, guvoh, advokat, prokuror, tergovchi hamda sudyalarning hammasi ishtirok etadi.

Albatta hech bir shaxsning aybi sud tomonidan to'liq aniqlanmaguncha aybdor hisoblanmaydi.

Sudyaning yakuniy qarori asosida aybdor shaxsga nisbatan hukm o'qiladi.

Hukmda unga nisbatan qanday jazo berilgani batafsil ko'rsatiladi. Sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi lozim.



## JINOYAT PROTSESSIDA BOLALARNING HUQUQLARI



Jabrlanuvchi bola hamda guvoh bolaning huquqlari Jinoyat-protses-sual qonunchiligi bilan ta'minlanadi.

Jabrlanuvchi bola va guvoh bola tergov bosqichida, shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha sudda ish ko'rilayotganda so'roqqa chaqirilishi mumkin.

So'roq qilish jarayonida voyaga yetmagan shaxsning **qonuniy vakili** (ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), **qarindoshi**, **pedagog**, **psixologlar** ham jalb etiladi. Sababi esa bolaning ruhiy va hissiy holatiga e'tiborli bo'lish va uni har qanday bosimdan himoya qilish uchun ularning ishtiroki zarur.

**Voyaga yetmagan shaxslarni so'roq qilish** maxsus so'roq o'tkazish uchun mo'ljallangan xonada bo'lib o'tishi mumkin. Ushbu xonada o'tkaziladigan so'roq qilish jarayoni **videoyozuvga** olinishi yoki uning ovozi (**audiosi**) yozib olinishi mumkin.



Jinsiy jinoyatlar, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar savdosiga oid jinoyat ishlari bo'yicha voyaga yetmagan guvohni yoki jabrlanuvchini so'roq qilish, shuningdek, boshqa holatlarda so'roq qilish, agar buni odil sudlovning yoki voyaga yetmagan shaxsning manfaatlari talab etsa, stenografiya, videokuzatuv, shuningdek, audio va video qayd etish tizimlari bilan jihozlangan maxsus xonada o'tkazilishi mumkin.

Maxsus jihozlangan ushbu xonada voyaga yetmagan shaxslarni so'roq qilish ularning ota-onalari, shuningdek, o'qituvchi va psixologlar ishtirokida amalga oshiriladi.

**16 yoshgacha bo'lgan guvoh va jabrlanuvchi** sifatida jalb qilingan bolalar ko'rsatuv berishdan bosh tortganligi, bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgarlik to'g'risida **ogohlantirilmaydi**. Lekin, shu bilan birga surishtiruv, tergov ishlarini olib boruvchi xodim, sudya har bir guvohlik berayotgan bolalar ro'y-rost gapirishi, haqiqatni yashirmasligi lozimligini eslatib o'tadi.




Jinoyat protsessining barcha bosqichlarida jinoyat sodir etishda jabrlanuvchi bola yoki guvoh bola bilan birgalikda quyidagi shaxslar ishtirok etadi:

- uning ota-onasi yoki uning o'rnini bosuvchi shaxslar;
- ota-onasi yoki uning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan birgalikda katta yoshdagi yaqin qarindoshlaridan biri yoki o'zi ishonadigan boshqa shaxs;
- jinoyatning jabrlanuvchisi bo'lgan bola va guvohi bo'lgan bola ishongan boshqa shaxs ham ishtirok etishi mumkin.

Agar bola o'zining jinsiy erkinligiga qarshi jinoyat jabrlanuvchisiga aylangan bo'lsa, sudda ish **yopiq sud majlisida** ko'riladi.

Sud muhokamasida sudya tomonidan:

- begona shaxslar;
- ommaviy axborot vositalarining ishtirokiga ruxsat berilmaydi.



Yopiq sud majlisida faqatgina sudya, prokuror, sudlanuvchi hamda uning advokati, jabrlanuvchi hamda uning qonuniy vakili, pedagog (psixolog) ishtirok etadi.

Bundan tashqari, jabrlanuvchi bola yoki guvoh bola to'g'risidagi **begona shaxslarga ma'lum bo'lmasligi kerak bo'lgan ma'lumotlar, bolaga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar** oshkor etilishi mumkin bo'lgan hollarda **yopiq sud majlisi** o'tkaziladi.

Buning uchun bolaning **qonuniy vakili** (ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) yoki **bolaning himoyachisi** (advokati) yoki **uning vakili** sudyaga bunday iltimosnoma bilan murojaat qilishi kerak.

Jabrlanuvchi bola va guvoh bolaning huquqlari qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar bilan ta'minlanadi.

Qonun bolalar huquqlarini himoya qiladi va ularning buzilishiga yo'l qo'ymaydi.



Yevropa Ittifoqi zamonaviy nou-xaular, resurslar va taqdirlarini bosqichma-bosqich birlashtirishga qaror qilgan 27 a'zo davlatdan iborat. 60 yil davomida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamjihatlikda o'z chegaralarini kengaytirib keldilar; Ittifoqqa a'zo davlatlar madaniy xilma-xillik, bag'rikenglik va shaxs erkinligini kafolatlagan holda barqarorlik, demokratiya va barqaror rivojlanish hududini yaratdilar. Yevropa Ittifoqi o'z yutuqlari va qadriyatlarini ittifoqdan tashqarida bo'lgan mamlakatlar va xalqlar bilan baham ko'rish tamoyillarini ilgari suradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – O'zbekiston Respublikasida jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi adliya organlari tuzildi. Adliya vazirligi Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot beradi.

UNICEF tomonidan amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va harakatlar har bir bolaning huquqlari va farovonligini himoya qilishga qaratilgan. Biz hamkorlarimiz bilan o'z maqsadlarimizni amalga oshirishda birgalikda 190 mamlakat va hududlarda faoliyat olib boramiz. Bunda biz, asosiy e'tiborimizni dunyoning barcha chekkalaridagi bolalarning manfaati uchun, eng himoyasiz va chetlatilgan bolalarga qaratishga intilamiz. UNICEF bolalar huquqlarini hurmat qiladigan dunyoga o'z g'oyalarini amalda tatbiq etish uchun O'zbekistondagi davlat institutlari, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari, professional uyushmalar va ilmiy muassasalar bilan, shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi.



### **Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi delegatsiyasi**

107B Amir Temur ko'chasi, Xalqaro biznes markazi 100 084 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 78 120 16 01 /02 /03 /04

Email: [delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu](mailto:delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu)

Veб-sayt: [www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan\\_en](http://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan_en)

Facebook: [www.facebook.com/edudeluzb](http://www.facebook.com/edudeluzb)

### **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi**

O'zbekiston Respublikasi 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 5

Tel: +998 71 207 04 43

Email: [info@adliya.uz](mailto:info@adliya.uz)

Veб-sayt: [www.adliya.uz](http://www.adliya.uz)

### **BMTning O'zbekistondagi Bolalar jamg'armasi**

Poytaxt biznes markazi 16 Sharof Rashidov ko'chasi 100 029 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 71 233 95 12

Email: [tashkent@unicef.org](mailto:tashkent@unicef.org)

Veб-sayt: <https://www.unicef.org/uzbekistan/>

Facebook: <https://www.facebook.com/unicefuzb/>